



«ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ТЕХНИКИ В СЕЛЬСКОМ И ВОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ»

**международная научно-практическая
онлайн-конференция
25-26 сентября, 2020 года**



Бухарский филиал Ташкентского института инженеров ирригации и механизации
сельского хозяйства (Узбекистан)

Санкт-Петербургский государственный аграрный университет (Россия)

Белорусская государственная сельскохозяйственная академия (Беларусь)

Курская государственная сельскохозяйственная академия имени И.И.Иванова (Россия)

Университет Небраска (США)

Юго-Западный государственный университет (Россия)

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ТЕХНИКИ В СЕЛЬСКОМ И ВОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ

СБОРНИК

*научных трудов международной научно-практической онлайн конференции
посвященной 10-летию образования Бухарского филиала Ташкентского
института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства*

25-26 сентября 2020 года

Ответственный редактор Жураев Т.Х.

**Издательство «Дурдона»
Бухара – 2020**

Нуров Д. МАМЛАКАТИМИЗДА МАВЖУД СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ТЎҒРИ Фойдаланиш МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ.	225
Асатов С., Сулаймонов Ж. СУҒОРИЛАДИГАН ЕРЛАРНИНГ ИККИЛАМЧИ ШЎРЛАНИШИ ВА УЛАРНИНГ МЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТИНИ ЯХШИЛАШ	226
Хужакулов Р., Худайев И., Ҳамзаев Ф. МЕТОДЫ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ СОВМЕСТНЫХ ДЕФОРМАЦИЙ ГИДРОТЕХНИЧЕСКИХ СООРУЖЕНИЙ И ИХ ПРОСАДОЧНЫХ ОСНОВАНИЙ	228
Аманова З. СУВ ТАҚЧИЛЛИГИ КУЗАТИЛГАН ЙИЛЛАРДА СУВДАН САМАРАЛИ Фойдаланиш ВА СУВ ТЕЖАМКОР СУҒОРИШ ТЕХНОЛАГИЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ.....	231
Исламова З. МИНЕРАЛ ЎҒИТЛАР ВА НИТРАГИННИНГ ЛОВИЯ ҲОСИЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ	233
Искандаров С., Эгамбердиева Ш. РАЗВИТИЯ РЫНКА ПЛОДООВОЩНОЙ ПРОДУКЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	235
Худайев И., Хужакулов Р., Ҳамзаев Ф. ҒЎЗАНИ КОЛЛЕКТОР-ЗОВУР СУВЛАРИ БИЛАН СУҒОРИШ	237
Вафоева М. ДЕЙСТВИЕ ВЕСЕННЕЙ ВНЕКОРНЕВОЙ ПОДКОРМКИ НА ХЛОРОФИЛЛ В ЛИСТЬЯХ ОЗИМОЙ ПШЕНИЦЫ В РАЗЛИЧНЫХ УСЛОВИЯХ ПИТАНИЯ	240
Уралов Б., Шарипов А.Э., Абдуллаев Ж., Назаров Д., Фатхуллаев С., Жўракулов О. СУҒОРИШ НАСОС СТАНЦИЯЛАРИДАГИ НАСОС АГРЕГАТЛАРИНИНГ Фойдали иш КОЭФФИЦИЕНТЛАРИНИ КАМАЙИШИ САБАБЛАРИ ВА УЛАРНИНГ САМАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙУЛЛАРИ.	242
Уралов Б.Р., Шарипов А.Э., Абдуллаев Ж., Назаров Д., Махмудов А., Жўракулов О. МЕЛИОРАТИВ НАСОС СТАНЦИЯЛАРИДАГИ АГРЕГАТЛАРИНИ ИШЛАТИШ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ОМИЛЛАРИ.	244
Абдуллаев М., Алимова Н., Сайидов Ш. ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ РОБОТ-ФЕРМЕР ДЛЯ УХОДА ЗА РАСТЕНИЯМИ В ТЕПЛИЧНОМ ХОЗЯЙСТВЕ	246
Абдуазимов А. ҚУРҒОҚЧИЛИККА ЧИДАМЛИ БАҲОРГИ БУҒДОЙ СЕЛЕКЦИЯСИ	248
Шодиева С. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ТУМАНЛАРИДАГИ СУҒОРИЛАДИГАН ШЎРЛАНГАН ЕРЛАРНИНГ МЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТИНИ ЯХШИЛАШ БЎЙИЧА ТАВСИЯЛАР	250
V.Janapov, M.E.Azimova, M.S.Nahobova. Bahorgi yumshoq bug' doy navlari maxsuldorlik va texnologik sifat ko'rsatkichlari.....	252
Жўраев А., Жўраев У., Ҳамраев К., Қодиров З. ШЎРГА ЧИДАМЛИ КУЗГИ ДОН ЭКИНЛАРИНИНГ СУҒОРИШ ТАРТИБИ ИЛМИЙ АСОСЛАШ.....	254
Жўраев А., Жўраев У., Ҳамраев К., Қодиров З. ШЎРЛАНГАН ТУПРОҚЛАРДА ҚУРҒОҚЧИЛИККА, ШЎРГА ЧИДАМЛИ ЭКИНЛАРНИ ЎСИШИ, РИВОЖЛАНИШИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИ.....	256
Жананов Б., Абдуазимов А. ХОЗЯЙСТВЕННЫЕ ПРИЗНАКИ ЯРОВОЙ ПШЕНИЦЫ И ИХ ВЗАИМОСВЯЗЬ	258
U.Alimov, Sh.Turdiqulov POLIZ MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH HOLATI VA ISTIQBOL: JIZZAX VILOYATIDA	260
Исаев С., Худайев И., Жўраев А., Қодиров З. РЕСУРСТЕЖАМКОР СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА СОЯ ЕТИШТИРИШНИНГ ДОН ҲОСИЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ	263
Исаев С., Жўраев А., Қодиров З., Исаева Л. СОЯНИ ЭКИШ МУДДАТИ ВА ЭКИШ МИҚДОРНИНГ СОЯИНГ РИВОЖЛАНИШИ ВА ҲОСИЛДОРЛИКГА ТАЪСИРИНИ ИЛМИЙ АСОСЛАШ	264
Рахмонов Д., Мурадов Р. АДИБ ЕРЛАРДА КУЗГИ БУҒДОЙДАН Кейин Такрорий ЭКИНЛАРДАН ЮҚОРИ ҲОСИЛ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИ	267
Ҳамидов М., Ҳамраев К. Бухоро воҳасининг шўрланган тупроқлари шароитида самарали шўр ювиш технологиясини қўллашнинг аҳамияти	269
Исломов И. ВЛИЯНИЕ РЕЖИМОВ ОРОШЕНИЯ И МИНЕРАЛЬНОГО ПИТАНИЯ НА УРОЖАЙ ЛЮЦЕРНЫ ПЕРВОГО ГОДА СТОЯНИЯ В УСЛОВИЯХ ПОЧВ ТИПИЧНОГО СЕРОЗЕОМА ВАХШСКОЙ ДОЛИНЫ.....	271
Аманова З. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ГИДРОГЕЛЬ СУНЪИЙ ПОЛИМЕР СУВ ТЕЖАМКОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ Қўлланилиш САМАРАДОРЛИГИ	273
Абдиев А., Турсунова М. НЎХАТНИНГ ВЕГЕТАЦИЯ ДАВРИ ДАВОМИЙЛИГИНИ ДОН ҲОСИЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ	276
Барнаева М. ДИНАМИКА ОБЪЕМНОЙ ВЛАЖНОСТИ ПРИ ПОСЛОЙНО-ПОЭТАПНОМ РЫХЛЕНИИ НА ФОНЕ ГОРИЗОНТАЛЬНОГО СИСТЕМАТИЧЕСКОГО ДРЕНАЖА	279
Ботиров Т., Бурунов Б. ИНТЕРВАЛЬНЫЕ БЕСПОИСКОВЫЕ АЛГОРИТМЫ ИДЕНТИФИКАЦИИ С АДАПТИВНОЙ МОДЕЛЬЮ	280

**СЕКЦИЯ №3. ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ИСПОЛЬЗОВАНИИ И УПРАВЛЕНИИ
ЗЕМЕЛЬНЫМИ РЕСУРСАМИ.282**

Имомқулов Ў. ЎЗБЕКИСТОН ФАЗОВИЙ МАЪЛУМОТЛАР МИЛЛИЙ ИНФРАТУЗИЛМАСИ ГЕОСЕРВИСЛАРИДАН Фойдаланишда ВЕБ ВА МОБИЛЬ ГЕОАХБОРОТЛАРНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ.....	282
Авезбаев С, Абдуллаева М.Т. ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ҒУЗОР ТУМАНИДАГИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ЕРЛАРИНИ ЙЎҚЛАМАДАН ЎТКАЗИШ ИШЛАРИ.....	284

по содержанию клейковины отвечал требованиям ГОСТа для сильной пшеницы. Это указывает на толерантность данного сорта к патогену.

Таблица 2. Коэффициенты корреляции показателей качества зерна с урожайностью яровой мягкой пшеницы, в среднем за 2014-2015 гг.

Показатели корреляции	Урожайность, ц/га	Масса 1000 зерен, г	Стекло-видность, %	Натура, г/л	Содержание клейковины, %	Качество клейковины, ед. ИДК
Масса 1000 зерен, г	0,20					
Стекловидность, %	-0,08	-0,28				
Натура, г/л	0,23	0,06	0,55			
Содержание клейковины, %	-0,15	0,07	0,10	0,27		
Качество клейковины, ед. ИДК	-0,34	-0,07	-0,29	-0,16	0,35	
Содержание протеина, %	-0,29	-0,07	-0,14	-0,33	0,60	0,40

По качеству клейковины сорта в основном формировали удовлетворительно слабую клейковину (II группа качества). По результатам корреляционного анализа данных выявлено, что содержание клейковины в положительной взаимосвязи находится с его качеством ($r=+0,35$), с содержанием сырого протеина в зерне ($r=+0,60$) и показателем седиментации ($r=+0,38$). Поэтому следует выделить сорта, которые совмещали высокое содержание клейковины с качеством, отвечающим требованиям сильных пшениц. К числу таких сортов отнесены Kr-SpR2014-21, Kr-SpR2014-13, Kr-SpR2014-4, Kr-SpR2014-20, Kr-SpR2014-10 (I группа качества) (табл. 1).

В качестве дополнительных показателей качества клейковины нами было использовано тест-число. Тест-число у всех сортов имело высокие показатели. Данный показатель проявил слабую положительную связь с твердозерностью ($r=+0,40$).

Содержание клейковины было в положительной связи с содержанием сырого протеина в зерне ($r=+0,60$). Наибольшее содержание сырого протеина в зерне отмечено у стандартного сорта Хазрати Башир (15,7 %), а также у Kr-SpR2014-2 (18,0 %), Kr-SpR2014-8 (17,0 %), Kr-SpR2014-3 (16,5 %), Kr-SpR2014-4 (16,4 %).

Выводы. Таким образом, по результатам проведенных исследований в качестве перспективных сортов-источников, сочетающих адаптивность с комплексом показателей качества зерна, следует признать сорта Kr-SpR2014-14, Kr-SpR2014-22, Kr-SpR2014-4, Kr-SpR2014-6, Kr-SpR2014-19, Kr-SpR2014-10, Kr-SpR2014-15. Кроме того, ценным исходным материалом по белку в условиях южного региона Республики Узбекистана являются Жануб Гавхари, Kr-Sp/2010/59 и Kr-SpR2014-2.

Список использованной литературы:

1. Доспехов Б. А. Методика полевого опыта. М.: Колос, 1979.
2. Абдуазимов А. М. Исходный материал для селекции мягкой яровой пшеницы на качество зерна в южном регионе Узбекистана //Аграрная наука. – 2018. – №. 1. – С. 23-24.
3. Абдуазимов А. М., Вафоева М. Б. ИЛДИЗДАН ТАШҚАРИ ОЗИҚЛАНТИРИШНИНГ КУЗГИ БУҒДОЙ БАҒЛАР ТАРКИБИДАГИ ХЛОРОФИЛЛ МИҚДОРИГА ТАЪСИРИ //Life Sciences and Agriculture. – 2020. – №. 2.
4. Пумпянский А. Я. Технологические свойства мягких пшениц. Л.: Колос, 1971.
5. Пшеницы мира / под ред. Д. Д. Брежнева. Л.: Колос, 1976.

Abstract. The search for donor varieties by grain quality for their use as a starting material for the further improvement of the local agroecotype of spring common wheat by creating new varieties is topical and priority.

The main indicators characterizing the baking qualities of wheat are the quantity and quality of gluten in the grain. According to the research results, promising source varieties combining adaptability with a complex of grain quality indicators should be recognized, varieties Kr-SpR2014-14, Kr-SpR2014-22, Kr-SpR2014-4, Kr-SpR2014-6, Kr-SpR2014-19, Kr-SpR2014-10, Kr-SpR2014-15.

Key words. selection, spring soft wheat, grain quality, sedimentation index, gluten, protein.

POLIZ MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH HOLATI VA ISTIQBOLI: JIZZAX VILOYATIDA

Uchqun Zoirovich Alimov, tridonus@mail.ru

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti tayanch doktoranti. Toshkent, O'zbekiston

Shoxrux Siroj o'g'li Turdiqulov, shoxrux192277@gmail.com

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti talabasi. Toshkent, O'zbekiston

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish har bir davlatning asosiy vazifalaridan biri. Ko'payib borayotgan aholi ehtiyojlariga mos ravishda sifatli hamda to'yimli iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish bugun ko'plab davlatlar uchun o'ta dolzarb masalalardan biri sanaladi. Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi inson organizmi uchun foydali moddalarning mavjudligi asosiy talabalardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda qishoq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning davlat tomonidan har tomonlama qo'llab quvvatlanishi ular bilan ta'minotchi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida bozor mexanizmlari joriy qilinishi natijasida yerga bo'lgan munosabat o'zgardi. Shu bilan birga, sohada olib borilayotgan izchil islohatlarga qaramasdan sabzavot-polizchilik, bog'dorchilik va uzumchilik yo'nalishdagi fermer xo'jaliklarning bir qator muammo va kamchiliklarning mavjudligi ularning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa aholining ovqatlanish ratsionini va oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashning kamchiliklaridan bo'lib qolmoqda. Bizga ma'lumki aksariyat davlatlarda oziq-ovqat yetishmovchiligi muammosi qiynab kelmoqda va mana shuning o'zi ham bugungi kunda mavzuning naqadar dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Prezidentning 2020 yil 11 maydagi "Respublika hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4749 sonli qarori sohadagi yillar davomida mavjud bo'lgan muammolarning yechimi uchun asos vazifani bajaradi. Qarorda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini amalga oshirish quyidagilar qismida nazarda tutilgan:

- Respublika hududlarini bosqichma-bosqich qishloq xo'jaligi mahsulotlarining muayyan turlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish;

- Respublika hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlarining muayyan turlariga ixtisoslashtirish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida eksperiment tariqasida 2020-2022 yillar davomida Jizzax viloyatining jami 116,3 ming gektar qo'shimcha yer maydonlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish. 2020 - 2022 yillarda Jizzax viloyatida 6566 gektar yer maydoni polizchilik mahsulotlarini yetishtirish uchun ixtisoslashtirish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari qarorda Jizzax viloyati ayrim hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirishda 2020-2022 yillar davomida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo'yicha yo'l xaritasi tasdiqlangan bo'lib, bu tarmoq rivojiga samarali ta'sir o'tkazadi.

Hududlardagi qayta ishlash korxonalarining quvvatlari, ichki va tashqi bozor talabi va mahsulotlar sifat ko'rsatkichlarining hisobga olinmasligi mahsulot yetishtirish hajmlarini ko'paytirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

Tashqi bozorning ho'l holatda eksport qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini o'rganishda zamonaviy marketing yondashuvi yo'lga qo'yilmagan;

Hududlarning tuproq-iqlim sharoitlariga mos bo'lgan eksportbop va raqobatbardosh ekinlar urug'larini yetishtirish, kasallik hamda zararkunandalarga qarshi kurashishda ilmiy va innovatsion yondashuv tizimi mavjud emas;

Fermer xo'jaliklari tomonidan ularga ajratib berilgan yer uchastkalarini qonun hujjatlari talablariga zid ravishda boshqa shaxslarga ijaraga berish holatlari ko'payib borishi oqibatida yerlardan foydalanish samaradorligi pasayib ketmoqda;

Sabzavot, poliz, kartoshka va dukkakli ekinlarni ekish va yetishtirishda hanuzgacha eski texnologiyalardan foydalanilmoqda, intensiv texnologiyalarni joriy etishga yetarli e'tibor berilmasligi oqibatida ekinlarning hosildorligi pasayib, mahsulotlar tannarxi oshib bormoqda;

Bir yillik va ko'p yillik qishloq xo'jaligi ekin turlarini joylashtirishda daromad olishga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti, yetishtirilgan mahsulotlarni sotishdan tushadigan naqd pul mablag'larining hisob-kitobini yuritish tizimi to'liq shakllanmagan.

Kuzatuvlar natijasida aniqlandiki, O'zbekistonda polizchilik mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjud. Bu imkonitlardan oqilona foydalanish tarmoqning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Quyidagi imkoniyatlarni sanab o'tish mumkin:

- tabiiy iqlim sharoit;
- poliz mahsulotlari yetishtirish bo'yicha qadimdan mavjud tajriba;
- davlat tomonidan sohani rivojlantirish uchun mavjud e'tibor.

Yuqoridagi imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramay Jizzaxda poliz mahsulotlarini yetishtirish 2017-2019 yillarda o'sish tendensiyasini saqlab qolmagan (1-jadval).

1-jadval

2017-2019 yillarda poliz mahsulotlarini yetishtirish ko'rsatkichlari.

Xo'jalik toifalari	Ko'rsatkilar	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2019 yilda 2017 yilga nisbatan o'sish
Fermer xo'jaliklari	Ming tonna	157,8	99,6	112,8	-45,0
	O'sish ko'rsatkichi, %	86,6	63,1	113,3	71,5
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	Ming tonna	120,7	126,2	127,9	+7,2
	O'sish ko'rsatkichi, %	103,7	104,6	101,3	105,9
	Ming tonna	3,0	3,1	3,3	0,3

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruchi tashkilotlar	O'sish ko'rsatkichi, %	261,7	109,1	94,5	110,0
Barcha toifadagi xo'jaliklar	Ming tonna	281,5	228,9	244,0	-37,5
	O'sish ko'rsatkichi, %	93,9	84,7	107,5	86,7

2017 yilda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan jami 281,5 ming tonna poliz mahsulotlari yetishtirilib, 2016 yilga nisbatan 93,9 foizga o'sish ko'rsatkichiga erishilgan. Shundan 157,8 ming tonna yoki umumiy poliz mahsulotlarining 86,6 foizi fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan. Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari tomonidan 120,7 ming tonna yoki 103,7 foiz poliz mahsulotlari yetishtirilgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruchi tashkilotlar esa 3,0 ming tonna yoki 261,7 foiz poliz mahsulotlarini yetishtirgan. 2018 yilda jami 228,9 ming tonna poliz mahsulotlari yetishtirilgan bo'lib, shundan 99,6 ming tonnasi fermer xo'jaliklari, 126,2 ming tonnasi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari va 3,1 ming tonnasi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruchi tashkilotlar tomonidan yetishtirilgan. 2019 yilda yetishtirilgan jami poliz mahsulotlari xajmi 244,0 ming tonnani tashkil etib, shundan 112,8 ming tonnasi fermer xo'jaliklari, 127,9 ming tonnasi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari va 3,3 ming tonnasi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruchi tashkilotlar tomonidan yetishtirilgan.

Polizchilik tarmog'ida viloyatda oxirgi uch yilda mahsulot yetishtirishda barqaror rivojlanishga erishilmagan. O'rganish natijalari va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda davlatning asosiy yo'nalishlari bu tarmoqni kelajakda viloyatda barqaror rivojlantirish imkoniyatlari mavjud ekanligini ko'rsatmoqda.

Polizchilik tarmog'ini rivojlantirish va istiqbolda samaradorlikni ko'tarishda quyodagi keltirilgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish orqali erishish mumkin:

- ✓ Birinchidan, ajratilgan yerlarning aksariyati sho'r yer ekanligini va sho'r yerni yuvish uchun yetarlicha suv berilmasligi. Natijada yetishtiriladigan poliz ekinlari tarvuz, qovun, qovoqning hosildorligi tushib ketadi;
- ✓ Ikkinchidan, yetishtirilgan mahsulotlarga har xil turdagi kasalliklar yuqishi va nobut bo'lishi. Mavjud poliz kasalliklarining yangi turlarining paydo bo'lishi;
- ✓ Uchinchidan, malakali mutahassislarning kamligi ya'ni ushbu sohada ham kadrlar yetishmasligi. Faoliyat yuritayotgan mutahassislarning yangi texnologiyalarni qo'llamasligi.;
- ✓ To'rtinchidan mahsulotlarni ekish, yetishtirish va ishlov berishda kerakli bo'lgan texnikalarning ma'naviy eskirganligi va to'liq ta'minlanmaganligi;

Yuqorida sanab o'tilgan ayrim muammo va kamchiliklarni yechimi sifatida mahsulot yetishtirish uchun mineral holati yaxshi o'rganilgan, ball baniteti baland, yaxshi bo'lgan yerlar ajratilishini, iqlim va sharoitga mos poliz mahsulotlari navlarini yaratish, seleksiya uchun ilmiy grandlar va fondlardan moliyaviy mablag' ajratishni ko'paytirish, kasalliklar turlari va ularga qarshi kurashish vositalarini jamlagan yagona online-elektron baza yaratish, kadrlar tayyorlash va o'qitishda nazariya bilan amaliyotni bir vaqtda olib borishni yanada takomillashtirishni va tarmoq rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribali mutahassislari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, zamonaviy texnikalarni olish va foydalanishda rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib poliz mahsulotlari yetishtiruvchilari o'rtasida gorizontaal kooperatsiyalarni rivojlantirishni taklif etishimiz mumkin.

Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, polizchilik tarmog'ining rivojlanishi hudud iqtisodiyoti va aholi turmush darajasini yashilanishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Tarmoqda erishilgan yutuqlar bilan birga yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Tarmoqda ilmiy ishlab chiqarishni keng joriy etish, tarmoq rivojlangan xorijiy davlatlarning amaliy tajribasini o'rganish, dunyo bozorida raqobatbardosh bo'lgan poliz mahsulotlari navlarini yetishtirishni yo'lga qo'yish, yetishtirilgan mahsulot uchun yangi bozorlarni ochish orqali sohada barqaror rivojlanishga erishish imkonligini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 maydagi "Respublika hududlarini qishloq ho'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4749 sonli qarori.
2. Sh.M. Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faolyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent: O'zbekiston, 2017
3. Sh.M. Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" Toshkent: O'zbekiston, 2017
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy – uslubiy risola.
5. Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi. Rasmiy veb-sayt: www.jizzaxstat.uz
6. Abdusaid Sheraliyev "Umumiy va qishloq xo'jaligi fitopatologiyasi" Toshkent - «Talqin» - 2008
7. N. Pardabekova "Agrar munosabatlar va Agrobiznes" Toshkent 2006.

Abstract. This article presents an analysis of the situation with the production of melons in the Jizzakh region in recent years, information on the future development of the industry and existing problems.

Key words: melon growing, hidden hunger, food safety, organic product.